



ON THE BEADS OF BURGUT-KALA

Gulnoz Bakhtiyorovna Matnazarova

Independent Researcher

Urgench State University named after Abu Rayhan Beruni

mgulnoz@bk.ru

Urgench, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Ya.G. Gulyamov, S.P. Tolstov, V.A. Lavrov, E.E. Nerazik, A.M. Belenitsky, I.V. Bentovich, O.G. Bolshakov, I.V. Ptashnikova, Central Asia, Uzbekistan, Khwarazm, Samarkand, Merv, Amu Darya, Sultan Uvays, Burgut-kala, Angka-kala, Dzhildyk-kala, Fil-kala.

Abstract: The article analyzes the beads discovered at Burgut-kala, one of the early medieval cultural and economic centers on the right bank of the Amu Darya River. The research examines the technological features of these archaeological finds and their significance in the development of the oasis's jewelry craft.

Received: 04.09.26

Accepted: 05.09.26

Published: 06.09.26

BURGUTQAL'A MUNCHOQLARI XUSUSIDA

Gulnoz Baxtiyorovna Matnazarova

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat

universiteti mustaqil tadqiqotchisi

mgulnoz@bk.ru

Urganch, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Ya.G'. G'ulomov, S.P. Tolstov, V.A. Lavrov, Ye.Ye. Nerazik, A.M. Belenitskiy, I.V. Bentovich, O.G. Bolshakov, I.V. Ptashnikova, O'rta Osiyo, O'zbekiston, Xorazm, Samarqand, Marv, Amudaryo, Sulton Uvays, Burgutqal'a, Angqaqal'a, Jildikqal'a, Filqal'a.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Amudaryoning o'ng sohili madaniy-xo'jalik markazlaridan biri bo'lgan ilk o'rta asrlarga oid Burgutqal'a vohasidan topilgan munchoqlar tahlil qilingan. Tadqiqotda arxeologik topilmalarning texnologik xususiyatlari va ularning voha zargarlik san'ati rivojidadagi o'rni yoritilgan.

О БУСИНАХ БУРГУТ-КАЛА

Гульноз Бахтиёровна Матназарова

Независимый исследователь Ургенчского государственного университета
имени Абу Райхана Беруни

mgulnoz@bk.ru

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Я.Г. Гулямов, С.П. Толстов, В.А. Лавров, Е.Е. Неразик, А.М. Беленицкий, И.В. Бентович, О.Г. Большаков, И.В. Пташникова, Средняя Азия, Узбекистан, Хорезм, Самарканд, Мерв, Амударья, Султан-Увайс, Бургут-кала, Ангка-кала, Джилдык-кала, Филь-кала.

Аннотация: В статье анализируются бусы раннесредневекового памятника Бургут-кала - одного из культурно-хозяйственных центров правобережья Амударьи. В работе рассматриваются технологические особенности археологических находок и их роль в развитии ювелирного искусства оазиса.

Kirish. Xorazm tarixida ilk oʻrta asrlar davri (V-IX asrlar) tub ijtimoiy-iqtisodiy va etnik-madaniy oʻzgarishlar yuz berganligi bilan alohida oʻrin tutadi. Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasi xodimlarining tadqiqotlarida qayd etilishicha, mazkur davrdagi taraqqiyot jarayonlari antik davrdagi tizimlardan tubdan farq qilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Xorazm arxeologiya ekspeditsiyasi tadqiqotlarida qayd etilishicha, antik davrda Amudaryoning oʻng sohili boʻylab joylashgan aholi zich yashaydigan yirik hududlar oʻrnini ilk oʻrta asrlarda tarqoqroq voha tizimlari egallagan. Akademik Ya.Gʻ. Gʻulomov oʻzining fundamental asarida milodiy V asrdan boshlab oʻng sohilning bir qator yodgorliklarida (masalan, Angkaqalʼa, Jildikqalʼa, Filqalʼa) sugʻorish tizimi buzilishi oqibatida madaniy hayot soʻnganligini, biroq VI asrning ikkinchi yarmidan boshlab Xorazmning muayyan qismlarida hayot qayta tiklanganini koʻrsatib oʻtgan [1, B. 123].

Ilk oʻrta asrlarda Oʻrta Osiyo mintaqasida shahar va qishloqlarning evolyutsiyasi masalasida S.P. Tolstov va A.M. Belenitskiy kabi olimlar turlicha ilmiy qarashlarni ilgari surishgan. S.P. Tolstovning fikricha, ilk oʻrta asr shaharlarida umumiy inqiroz holati kuzatilib, dehqonzodalar (feodallar) qasrlari va hukmdorlar qarorgohlarini hisobga olmaganda, umumshahar hunarmandchiligi va obodonchilik ishlari birmuncha pasaygan [2, C. 152]. Bu xulosa oʻz davrida koʻplab tadqiqotchilar tomonidan ham quvvatlangan [3, C. 53; 4, C. 109].

Keyingi tadqiqotlar shuni koʻrsatdiki, Samarqand va Marv kabi yirik markazlardan tashqari aksariyat qadimiy shaharlarning maydoni qisqargan boʻlsa-da, qishloq joylarda shahar tipidagi kichikroq istehkomli aholi punktlari va qasrlar tarmogʻi favqulodda koʻpaygan [5, C. 7]. BURGUTQALʼa vohasidagi arxeologik tahlillar shuni koʻrsatadiki, bu yerda hayot antik davrdagi 6 gektarlik umumiy maydondan ilk oʻrta asrlarga kelib taxminan 1 gektarlik mustahkamlangan ark qismiga koʻchgan. BURGUTQALʼada olib borilgan qazishmalar davomida turli shakldagi (aylana,

silindrik, relyefli), rangli va rangsiz shisha hamda tosh munchoqlar topilgan bo‘lib, ular VI-VIII asrlarga o‘ddir [6, C. 112]. S.P. Tolstov ta’kidlaganidek, antik va ilk o‘rta asr moddiy madaniyatidagi farqlar inqiroz emas, balki yagona xalq tarixiy taraqqiyotining ikki xil ijtimoiy-iqtisodiy bosqichidir [7, C. 246].

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot jarayonida tarixiylik, xronologik izchillik, qiyosiy-tipologik tahlil, tizimlilik va arxeologik manbashunoslik metodlaridan foydalanildi. Topilmalarni davrlashtirish va ularning tayyorlanish texnologiyasini aniqlashda arxeologiya, paleogeografiya va qadimiy texnologiyalar tarixi fanlarining so‘nggi yutuqlariga tayanildi.

Muhokama va natijalar. O‘rta Osiyoning boshqa mintaqalarida antik davr siyosiy munosabatlarini aks ettirgan Yunon-Baqtriya va Kushon davlatlarining iqtisodiy inqirozi hamda tashqi harbiy harakatlar natijasida markaziy hokimiyat barham topgan bo‘lsa, Xorazmda bu jarayon ko‘proq ichki ijtimoiy-iqtisodiy dinamika va sulolaviy o‘zgarishlar fonida kechdi. Xorazm vohasidagi ilk o‘rta asr jamiyatidagi o‘zgarishlar faqatgina tasodifiy jarayonlar mahsuli bo‘lmay, balki ishlab chiqaruvchi kuchlarning joylashishi va tabiiy resurslardan o‘zaro manfaatlarda foydalanish darajasiga bog‘liq bo‘lgan.

Xorazmda antik davr jamiyati taraqqiyotining klassik darajada rivojlanishida Amudaryodan chiqarilgan magistral sug‘orish tarmoqlari va muntazam suv ta’minoti muhim ahamiyat kasb etgan. Biroq, milodiy V-IX asrlarga kelib, gidrologik va ekologik vaziyatda tub o‘zgarishlar yuz berdi. Amudaryoning o‘ng sohilidagi ko‘plab qadimiy sug‘orish tarmoqlarida suv oqimining kamayishi yoki mutlaqo to‘xtashi oqibatida Ayozaqal’a 1 va 3, Jonbosqal’a, Qo‘yqirilganqal’a, Angkaqal’a, Akshaxan, Toshxirmon kabi yodgorliklar atrofida madaniy-xo‘jalik hayot inqirozga yuz tutdi yoki muayyan darajada cheklandi.

Shunga qaramay, suv manbalari saqlanib qolgan Burgutqal’a, Katta Guldursun, Uyqal’a, Qumbosganqal’a, Tuproqqal’a (ark qismi) va Qizilqal’a kabi hududlarda madaniy hayot davom etdi. Amudaryoning so‘l sohilida ham Tuproqqal’a (Xiva), Tuproqqal’a (Shovot), Tuproqqal’a (Yangiariq) kabi turar joylarda hayot so‘ngan bo‘lsa-da, Xiva, Xazorasp, Qalajiq, Zamaxshar, Kat, Gurganj va Devkesgan kabi yodgorliklarda shaharsozlik va xo‘jalik an‘analari izchil davom etdi.

Xorazm ekspeditsiyasi xulosalariga ko‘ra, ushbu tub siljishlar faqat subyektiv omillarga emas, balki chuqur obbyektiv ijtimoiy-iqtisodiy va tabiiy-geografik qonuniyatlarga asoslangan edi. Suv oqimi barqaror bo‘lgan hududlarda aholining moddiy va ma’naviy madaniyati rivojlanishda davom etdi. Shunday muhim markazlardan biri Burgutqal’a yodgorligidir. Mazkur maqolada milodiy VI asrning ikkinchi yarmi - IX asrlarda Amudaryo o‘ng sohilidagi

Burgutqal'a sug'orish tarmog'i atrofida shakllangan vohadan topilgan arxeologik munchoqlarni tahlil qilish maqsad qilingan.

Burgutqal'a vohasida olib borilgan keng ko'lamli arxeologik qazishmalar, xususan, S.P. Tolstov va Ye.Ye. Nerazik tadqiqotlari ushbu hudud ilk o'rta asrlarda o'ziga xos hunarmandchilik va madaniy markaz bo'lganligini tasdiqlaydi. Voha yodgorliklaridan, ayniqsa, mustahkamlangan feodal qo'rg'onlar (ko'shk) va ularning atrofidagi turar joy majmualaridan topilgan moddiy madaniyat namunalari ichida munchoqlar alohida o'rin egallaydi. Mazkur topilmalar nafaqat mahalliy aholining estetik didi va zargarlik san'ati darajasini, balki voha hunarmandlarining texnologik ko'nikmalarini ham aks ettiradi. Zargarlik buyumlari, jumladan, turli xil xomashyolardan tayyorlangan munchoqlarning tipologik tarkibi va ularning tahlili, ilk o'rta asrlarda o'ng sohil Xorazm aholisining qo'shni mintaqalar - Samarqand, Marv va hatto Buyuk Ipak yo'li tarmog'idagi uzoq o'lkalar bilan olib borgan iqtisodiy-savdo hamda etnomadaniy aloqalarini restavratsiya qilishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Amudaryoning o'ng sohilida joylashgan Burgutqal'a vohasi qadimiy Kaltaminor sug'orish tarmog'ining quyi qismida joylashgan. Temir davri oxirida To'rtkul hududi Yonboshqal'a balandligi gidrologiyasini aks ettirgan. Amudaryo yo'nalishini tartibga solish maqsadida Qizilqum tomon chiqarilgan Kaltaminor sug'orish inшоati sohili hududi bo'ylab, tekislikda mil.avv. IV-III asrda dehqonchilik madaniyatini rivojlantirishga imkon bergan Burgutqal'a aholisi avlodlari ajdodlariga kundalik hayotida zeb-ziynat buyumlaridan biri munchoqlarga xilma-xil rang berish san'ati bilimi rivojlanish tarixiga oid natijalarga erishildi. Bu sohada zeb-ziynat bilimining ajdodlar va yangi avlodlar o'rtasida an'analarda yangi ixtirolar va g'oyalar uyg'unligi mujassamlashgan. Ushbu yodgorlikda o'tkazilgan arxeologik qazishmalar davomida qayd etilgan munchoqlar kolleksiyasi o'zining xomashyoviy tarkibi va ishlov berilish texnikasi bilan ajralib turadi. Kolleksiya qvarsit, chaqmoqtosh, aqiq va shishadan ishlangan turli shakldagi munchoqlar mavjud. Sulton Uvays tog' tizmasidan olinadigan mahalliy qvarsit va chaqmoqtoshlardan mayda silindrik hamda aylana shakldagi munchoqlar yasash texnologiyasi mintaqada tosh davridan buyon davom etib kelayotgan mahalliy an'analarning qonuniy davomidir. Ilk o'rta asrlarga kelib, mahalliy hunarmand-zargarlar nafaqat toshga ishlov berishni yuqori darajaga yetkazdilar, balki shisha quyish va qoliplash texnikasini ham mukammal egalladilar. Burgutqal'adan topilgan munchoqlarning sirtidagi o'yma naqshlar va ranglar uyg'unligi ushbu davrda hunarmandchilikning ixtisoslashgan tarmog'i barqaror rivojlanganidan dalolat beradi.

Xulosa. Burgutqal'a vohasi ilk o'rta asrlar (V-VIII asrlar) moddiy madaniyatini o'rganish natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Quyi Amudaryo mintaqasida ilk o'rta asrlarda kechgan ijtimoiy-iqtisodiy inqirozlar barcha hududlarda ham hayotning so'nishiga olib kelmagan, balki aholining ekologik jihatdan qulayroq o'zanlar (Burgutqal'a vohasi kabi) atrofida to'planishiga sabab bo'lgan.

2. Burgutqal'adan topilgan munchoqlar kompleksi mintaqada antik davr zargarlik va toshga ishlov berish an'analari uzilib qolmaganini, aksincha, yangi texnologik va estetik uslublar (shishasozlik, aqiqqa ishlov berish) bilan boyitilganini ko'rsatadi.

3. Mazkur topilmalarni O'rta Osiyoning boshqa qadimiy shaharlari (Samarqand, Marv) ashyolari bilan qiyosiy tahlil qilish, ilk o'rta asrlarda Xorazm vohasining xalqaro savdo va madaniy aloqalar tizimidagi faol o'rnini aniqlash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Гуломов Я.Ф. Хоразмнинг суғорилиш тарихи. – Тошкент: Фан, 1959. – 324 б.
2. Толстов С.П. Древний Хорезм: Опыт историко-археологического исследования. – М.: МГУ, 1948. – 398 с.
3. Лавров В.А. Градостроительная культура Средней Азии (с древнейших времен до второй половины XIX в.). – М.: Государственное издательство архитектуры и градостроительства, 1950. – 178 с.
4. Неразик Е.Е. Керамика Хорезма афригидского периода // Керамика Хорезма. Труды Хорезмской археолого-этнографической экспедиции. Т. IV. – М.: Изд-во АН СССР, 1959. – С. 134–168.
5. Беленицкий А.М., Бентович И.В., Большаков О.Г. Средневековый город Средней Азии. – Л.: Наука, 1973. – 390 с.
6. Пташникова И.В. Бусы древнего и средневекового Хорезма // Труды Хорезмской археолого-этнографической экспедиции (ТХАЭЭ). – М.: Изд-во АН СССР, 1952. – Т. I. – С. 49–62.
7. Толстов С.П. По древним дельтам Окса и Яксарта. – М.: Изд-во восточной литературы, 1962. – 324 с.